(9). Oxford University Press. Oxford Learner's Dictionaries [Internet]. Oxford, Oxford University Press, 2024 [cited 2026 Feb 20]. Available from: https://www.oxfordlearnersdictionaries.com
(10). Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili (leksikologiya). Toshkent, "Universitet", 2006.
(11). Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "Fan va texnologiya", 2010.
(12). Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford, Oxford University Press, 1991.
(13). To'xtasinov I. Chet tillarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. Toshkent, TDPU, 2015.
(14). Xudoyberganova D. O'zbek tilida korpus lingvistikasi asoslari. Toshkent, "Akademnashr", 2020.

Ozodova Odina Qobil qizi (O'zbekiston milliy Pedagogika universiteti 2-kurs tayanch doktoranti, Toshkent, O'zbekiston; odinaarifjanova@gmail.com)

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA GEYMIFIKATSIYA ASOSIDAGI KONSEPTUAL YONDASHUV

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishda geymifikatsiya yondashuvining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida EFL o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion metodlarning yetarli darajada integratsiya qilinmaganligi tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi geymifikatsiya asosida metodik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil, ilmiy manbalarni kontent-tahlil qilish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi.*

Kalit so'zlar: *geymifikatsiya, EFL ta'limi, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari, metodik kompetensiya, tea-cher education, konseptual model, oliy ta'lim, pedagogik innovatsiyalar, motivatsiya.*

Озодова Одина (докторант 2-го года обучения Национального педагогического университета Узбекистана, г.Ташкент, Узбекистан; odinaarifjanova@gmail.com)

КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ГЕЙМИФИКАЦИИ

Аннотация. *В статье рассматриваются педагогические возможности геймификации в развитии методической компетентности будущих учителей английского языка. Актуальность исследования обусловлена необходимостью внедрения инновационных подходов в систему подготовки преподавателей иностранного языка в условиях цифровизации высшего образования. Целью работы является разработка концептуальной модели формирования методической компетентности будущих учителей английского языка на основе геймификации. В ходе исследования применялись методы системного и сравнительно-педагогического анализа, контент-анализа научной литературы и педагогического моделирования.*

Ключевые слова: *геймификация, обучение английскому языку (EFL), будущие учителя англий-ского языка, методическая компетентность, педагогическое образование, концептуальная модель, высшее образование, педагогические инновации, учебная мотивация.*

Ozodova Odina (2nd year PhD student of National pedagogical university of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan; odinaarifjanova@gmail.com)

A GAMIFICATION-BASED CONCEPTUAL FRAMEWORK FOR DEVELOPING METHODOLOGICAL COMPETENCE IN PRE-SERVICE EFL TEACHERS

Annotation. *This article explores the pedagogical potential of gamification in developing the methodological competence of pre-service EFL teachers. The relevance of the study is determined by the need to integrate innovative instructional approaches into contemporary teacher education within higher education. The aim of the research is to design a gamification-based conceptual framework for enhancing methodological competence in pre-service EFL teachers. The study employs systematic and comparative analysis, content analysis of recent scholarly literature, and conceptual modeling as its main research methods.*

Keywords: *gamification, EFL education, pre-service EFL teachers, methodological competence, teacher education, conceptual framework, higher education, pedagogical innovation, learning motivation.*

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish, ularning metodik kompetensiyasini rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Global ta'lim makonida raqamli texnologiyalar, interaktiv metodlar va o'quvchi markazli yondashuvlar keng qo'llanilayotgan bir paytda, an'anaviy o'qitish usullarining o'zi kelajak o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini to'liq ta'minlab bera olmayapti. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tilini o'qitish metodikasiga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni, xususan, geymifikatsiya yondashuvini integratsiya qilish zarurati ortib bormoqda.

Geymifikatsiya ta'lim jarayoniga o'yin elementlari va mexanizmlarini joriy etish orqali o'quvchilarning faolligini, motivatsiyasini hamda o'rganish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda ushbu yondashuv umumiy ta'lim jarayonida keng o'rganilgan bo'lsa-da, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishda geymifikatsiyaning nazariy va konseptual asoslari yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, EFL teacher education (o'qituvchilarning ingliz tilini xorijiy til sifatidagi ta'limi) jarayonida geymifikatsiya elementlarini tizimli ravishda qo'llashga qaratilgan konseptual model va metodik tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ilmiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini zamonaviy talablarga mos ravishda rivojlantirish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi – bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan geymifikatsiya asosidagi konseptual modelni ishlab chiqish va uning pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonini takomillashtirish, innovatsion metodlarni joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda ta'lim tizimida geymifikatsiya yondashuvining pedagogik imkoniyatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni sezilarli darajada ortdi. Yevropa va xalqaro ilmiy adabi-yotlarda ushbu yondashuv o'quvchilarning motivatsiyasi va ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida talqin etiladi. Xususan, M.Sailer va L.Homner tomonidan olib borilgan metatahlil natijalari geymifikatsiya elementlari o'quvchilarning o'quv jarayonidagi ishtiroki va motivatesiyasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini isbotlaydi [12]. J.Koivisto va J.Hamari tadqiqotlarida ham geymifikatsiya ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligi hamda o'zlashtirish natijalarini yaxshilashga xizmat qilishi ta'kidlangan [5].

Yevropa olimlari A.van Gaalen va hamkorlari oliy ta'lim tizimida geymifikatsiyadan foydalanish bo'yicha tizimli tahlil olib borib, mazkur yondashuv talabalarning o'quv jarayoniga jalb etilishini kuchaytirishi va refleksiv faoliyatini rivojlantirishga yordam berishini aniqlaganlar [15]. A.Krouska va hamkorlari esa geymifikatsiyaning zamonaviy ta'limdagi o'rni va uning pedagogik samaradorligi bo'yicha tadqiqotlar soni ortib borayotganini qayd etadi [6]. Z.Zainuddin va hamkorlarining ilmiy ishlarida oliy ta'lim muassasalarida geymifikatsiya asosida tashkil etilgan ta'lim muhitining talabalarning o'quv motivatsiyasi va o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'siri ko'rsatib berilgan [17]. Shuningdek, Yevropa Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan DigCompEdu modeli o'qituvchilarning raqamli va pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar, jumladan, geymifikatsiya muhim vosita bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi [11].

Rossiya olimlari tomonidan ham chet tillarini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanish masalalari keng o'rganilmoqda. E.S.Polat va M.Y.Buxarkina chet tillarini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etadi [10]. P.V.Sysoev raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlar o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi [13]. A.V.Guseva oliy ta'lim tizimida geymifikatsiya elementlarini joriy etish talabalarning o'quv faoliyatini faollashtirish va o'qitish samaradorligini oshirishga yordam berishini ko'r-satadi [2]. E.G.Tareva esa bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida metodik kompetensiyani rivojlanti-rishning zamonaviy yondashuvlarini asoslab beradi [14].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham ingliz tilini o'qitishda innovatsion metodlarni qo'llash masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. N.Xodjayeva va D.Abdullayeva ingliz tilini o'qitishda interaktiv va innovatsion metodlar talabalarning o'quv faolligini oshirishini ta'kidlaydi [16]. A.Nurmuhamedov oliy ta'lim tizimida raqamli pedagogika va zamonaviy metodlardan foydalanish o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi [8]. U.Karimov bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda innovatsion pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini asoslaydi [4]. Z.Ismoilova esa chet tillarini o'qitishda zamonaviy metodlar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ta'lim samaradorligini oshirishini qayd etadi [3].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, geymifikatsiya ta'lim jarayonida o'quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida keng o'rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida geymifikatsiya asosan o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi yoki til ko'nikmalarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan konseptual yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot geymifikatsiya asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan konseptual modelni ishlab chiqish orqali mavjud ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishda geymifikatsiya yondashuvining pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash va konseptual model ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida pedagogik tadqiqotlarning zamonaviy nazariy yondashuvlariga tayangan holda tizimli, kompetensiyaviy va innovatsion yondashuvlar uyg‘unligi asos qilib olindi. Tadqiqotning umumiy falsafasi konstruktivistik va kompetensiyaga yo‘naltirilgan pedagogik qarashlarga tayanadi, asosan, induktiv-deduktiv tahlil asosida amalga oshirildi: mavjud nazariy manbalarni tahlil qilish orqali umumiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tizimli va qiyosiy tahlil qilish, kontent-tahlil, umumlashtirish, pedagogik modellashtirish hamda konseptual yondashuv asosida nazariy konstruksiya yaratish. Ushbu metodlar tadqiqot muammosining mohiyatini chuqur ochib berish, mavjud yondashuvlarni solishtirishga xizmat qildi.

Tadqiqotning obyektini oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni, predmeti esa mazkur jarayonda geymifikatsiya yondashuvi asosida metodik kompetensiyani rivojlantirish mexanizmlari tashkil etadi. Tadqiqotda asosan ikkilamchi ma’lumot manbalari – mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Mazkur manbalar asosida geymifikatsiya yondashuvining pedagogik imkoniyatlari, metodik kompetensiya tushunchasining tarkibiy komponentlari hamda teacher education tizimida innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga oid ilmiy qa-rashlar umumlashtirildi.

Tahlil va natijalar. Kontent-tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, metodik kompetensiya asosan uchta asosiy komponentdan iborat: metodik bilimlar, amaliy metodik ko‘nikmalar va refleksiv faoliyat. Ushbu komponentlar o‘qituvchining darsni rejalashtirish, ta’lim metodlarini tanlash, o‘quv jarayonini tashkil etish va natijalarni baholash kabi kasbiy faoliyatlarini qamrab oladi.

Ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish natijasida geymifikatsiya yondashuvining asosiy didaktik elementlari – o‘yin mexanizmlari (ballar, darajalar, badge), muammoli vazifalar, raqobat va hamkorlik elementlari hamda tezkor qayta aloqa tizimi ta’lim jarayonida o‘quv faolligi va motivatsiyani oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Mazkur elementlarning teacher education jarayoniga integratsiyasi metodik kompetensiyani rivoj-lantirishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatini tashkil etish imkonini berishi tahlil natijalarida qayd etildi. Tahlil qilingan manbalarda geymifikatsiya asosida tashkil etilgan ta’lim muhiti talabalarning o‘quv jarayoniga faol jalb etilishi, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va refleksiv faoliyatining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatildi.

Tizimli tahlil asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan geymifikatsiya asosidagi konseptual modelning tarkibiy komponentlari aniqlandi. Mazkur model quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi: maqsadli komponent (metodik kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan maqsadlar), mazmuniy komponent (metodik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv mazmuni), jarayon komponenti (geymifikatsiya elementlari asosida tashkil etilgan o‘quv faoliyati), baholash komponenti (formativ va summativ baholash mexanizmlari) hamda natijaviy komponent (metodik kompetensiya darajasining oshishi). Tahlil natijalari ushbu komponentlarning o‘zaro integratsiyasi bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Modellashtirish natijasida geymifikatsiya elementlarini teacher education jarayoniga joriy etish uchun zarur pedagogik shartlar ham aniqlandi. Ular qatoriga o‘quv jarayonini interaktiv tashkil etish, refleksiv faoliyatni qo‘llab-quvvatlash, raqamli platformalardan foydalanish va talabalarning o‘quv faoliyatiga individual yondashuvni ta’minlash kiradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu shartlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish va metodik kompetensiyani bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik kompetensiyasini rivojlantrishda geymifikatsiya yondashuvining nazariy va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash hamda konseptual model ishlab chiqishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy teacher education tizimida innovatsion yondashuvlar, xususan, geymifikatsiya elementlarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish bo‘lajak o‘qi-tuvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida metodik kompetensiyaning tarkibiy komponentlari aniqlanib, ularni rivojlantirishda geymifikatsiya yondashuvining didaktik salohiyati asoslab berildi.

Tadqiqot doirasida geymifikatsiya asosida metodik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan konseptual model ishlab chiqildi. Ushbu model maqsadli, mazmuniy, jarayonli, baholash va natijaviy komponentlarning o‘zaro integratsiyasiga asoslanadi hamda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining metodik bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va refleksiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Modelning pedagogik ahamiyati shundaki, u teacher education jarayonida innovatsion o‘qitish texnologiyalarini tizimli ravishda qo‘llash, talabalarning o‘quv motivatsiyasini oshirish va metodik kompetensiyani bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). European Commission. Digital Education Action Plan 2021–2027. Brussels, 2021, 45 p.

(2). Guseva A.V. Gamification in Higher Education: Pedagogical Potential. “Высшее образование в России”, 2022, № 5, с. 120–130.

(3). Ismoilova Z. Chet tillarini o‘qitishda zamonaviy metodlar. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2024, 200-betlar.

(4). Karimov U. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish. “Pedagogik ta’lim” jurnali, 2023, № 2, 45–52-betlar.

(5). Koivisto J., Hamari J. The Rise of Gamification in Education and Its Impact on Student Engagement. Computers in Human Behavior. 2021, vol. 124, p. 1–10.

(6). Krouska A., et al. Gamification in Education: A Systematic Literature Review. Education and Information Technologies. 2022, vol. 27, p. 1–25.

(7). Kuzmina N.V. Professional Competence of Teachers in Digital Education. Moskva, “Yurait”, 2021, p. 240.

(8). Nurmuhamedov A. Oliy ta’limda raqamli pedagogika va innovatsion metodlar. Toshkent, 2022, 150-bet.

(9). Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, 2022.

(10). Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. Педагогические технологии в обучении иностранным языкам. — Москва: Академия, 2020. 192 с.

(11). Redecker C. Digital Competence of Educators (DigCompEdu) Framework Update. Luxembourg: European Commission, 2020, 100 p.

(12). Sailer M., Homner L. The Gamification of Learning: A Meta-analysis. Educational Psychology Review. 2020, vol. 32, p. 77–112.

(13). Sysoev P.V. Digital Technologies in Foreign Language Teaching. Иностранные языки в школе, 2021, №3, p. 2–9.

(14). Tareva E.G. Professional Training of Future Foreign Language Teachers. “Pedagogika”, 2023, №4, p. 45–52.

(15). Van Gaalen A., et al. Gamification in Higher Education: A Systematic Review. Educational Technology Research and Development. 2021, vol. 69(2), p. 1–23.

(16). Xodjayeva N., Abdullayeva D. Ingliz tilini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, “Fan”, 2021, 180-bet.

(17). Zainuddin Z., et al. Gamified Learning in Higher Education: A Review of Recent Trends. Computers & Education, 2023, vol. 190, p. 104600.

(18). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Toshkent, 2020.

(19). www.ziyonet.uz

(20). www.natlib.uz

(21). unilibrary.uz

Omonov Bahodir Nurillayevich (Shahrisabz davlat Pedagogika instituti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri, f.f.d. (DSc), professor; E-mail: bakhodiron@gmail.com)

EKOLOGIK TA’LIM VA TARBIYANI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY-MA’NAVIY AHAMIYATI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ekologik ta’lim va tarbiyani takomillashtirishning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ekologik ta’limning jamiyat barqaror ri-vojlanishidagi o‘rni, shaxsda ekologik ong va mas’uliyatni shakllantirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Ekologik tarbiyaning ma’naviy-axloqiy mazmuni, uning shaxs kamoloti va ijtimoiy mas’uliyatli fuqarolik pozitsi-yasini rivojlantirishdagi roli ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ekologik ta’lim, ekologik tarbiya, ekologik ong, ekologik madaniyat, ijtimoiy-ma’naviy ri-vojlanish, barqaror taraqqiyot, ekologik mas’uliyat, shaxs kamoloti.*

Омонов Баходир Нуриллаевич (Шахрисабзский государственный педагогический институт, заведующий кафедрой социальных наук; доктор философских наук (DSc), профессор; E-mail: bakhodiron@gmail.com)

СОЦИАЛЬНО-МОРАЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

Аннотация. *В данной статье с научной и теоретической точки зрения анализируется социально-духовное значение совершенствования экологического образования и воспитания. Исследовательский процесс подтверждает роль экологического образования в устойчивом развитии общества и его важность в формировании экологического сознания и ответственности у отдельных лиц. Раскрывается духовно-нравственное содержание экологического образования, его роль в личностном развитии и формировании социально ответственной гражданской позиции.*